

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI**

**KASBIY TA'LIM AGENTLIGI**

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**



**«TASDIQLAYMAN»**

Kasbiy ta'limni rivojlantirish  
instituti direktori

X.Kadirov

» 2026 yil

**«TA'LIMDA BOSHQARUV»**

**kafedrası**

**YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI**

fani bo'yicha

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Ta'lim turi:** Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash  
**Tinglovchilar toifasi** Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

**TOSHKENT**

Mazkur ishchi o‘quv dastur Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

N.A.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,  
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,  
P.f.f.d. (PhD)

**Taqrizchilar:**

M.Dadaxodjayeva

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,  
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,  
Psixologiya fanlari nomzodi

U.B.Mamanazarov

Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim  
pedagogikasi” kafedrası katta  
o‘qituvchisi, Psixologiya fanlari falsafa  
doktori (PhD)

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan.  
202\_\_yil \_\_\_\_-sonli bayonnoma.

## I. TUSHUNTIRISH XATI

Hozirgi globallashuv, jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi va inson omiliga bo'lgan e'tiborning ortishi sharoitida shaxs psixik rivojlanishini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson hayoti davomida turli yosh bosqichlarini bosib o'tadi va har bir bosqich o'ziga xos psixologik xususiyatlar, ehtiyojlar, qiziqishlar hamda ijtimoiy munosabatlar bilan xarakterlanadi. Shu jihatdan "Yosh davrlari psixologiyasi" fani inson psixikasining ontogenetik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur fan turli yosh bosqichlarida shaxs rivojlanishining psixologik mexanizmlarini, psixik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlardagi o'zgarishlarni, yosh inqirozlarining kelib chiqish sabablarini hamda ularni bartaraf etish usullarini o'rganishga qaratilgan. Ayniqsa, amaliyotchi psixologlar faoliyatida bolalar, o'smirlar, yoshlar, kattalar va keksalar bilan ishlashda yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim kasbiy talab hisoblanadi.

Fanning dolzarbligi zamonaviy jamiyatda bolalar va o'smirlar o'rtasida emotsional zo'riqish, stress, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari, kasb tanlash muammolari va shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlarning ortib borayotgani bilan belgilanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va internet muhitining inson

psixikasiga ta'siri ham yosh davrlari psixologiyasini chuqur o'rganishni talab etmoqda. Turli yosh bosqichlarida psixologik yordam, psixodiagnostika va psixologik maslahat ishlarini samarali tashkil etish uchun mazkur fanning nazariy va amaliy ahamiyati kattadir.

“Yosh davrlari psixologiyasi” fani amaliyotchi psixologlarni qayta tayyorlash jarayonida muhim o‘rin egallab, tinglovchilarda inson psixik rivojlanishining yoshga xos xususiyatlarini tahlil qilish, yosh inqirozlarini aniqlash, psixologik tashxis va maslahat ishlarini tashkil etish bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Fanni o‘zlashtirish natijasida tinglovchilar turli yosh guruhlari bilan ishlashda zamonaviy psixologik yondashuvlar va metodlardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ushbu o‘quv fani o‘quv yuklamasi 36 soat bo‘lib, shundan:

Jami auditoriya o‘quv yuklamasi	- 36 soat
Jumladan: Nazariy mashg‘ulotlar	- 12 soat
Amaliy mashg‘ulotlar	- 24 soat

## II. FANNING NOMI VA MAQSADI

**2.1. Fan nomi:** Yosh davrlari psixologiyasi.

**2.2. Fan maqsadi:** Tinglovchilarda tinglovchilarda inson psixikasining ontogenetik rivojlanish qonuniyatlari, turli yosh davrlarining psixologik xususiyatlari, yosh inqirozlari, shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda turli yosh bosqichlarida psixologik tashxis va maslahat ishlarini tashkil etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish.

**2.3.** Tinglovchilar ushbu fanni o‘rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

Bilim	Ko‘nikma	Kompetensiya
Yosh davrlari psixologiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari.	Turli yosh davrlaridagi shaxs psixologik xususiyatlarini tahlil qila oladi.	Yosh davrlarining psixologik xususiyatlarini kasbiy faoliyatda hisobga olish kompetensiyasiga ega bo‘ladi.
Inson psixik rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.	Yosh davrlariga mos psixodiagnostik metodlarni tanlay oladi.	Turli yosh guruhlari bilan ishlashda individual yondashuvni qo‘llay oladi.
Yosh davrlarining psixologik tavsiflari.	Bolalar, o‘smirlar, yoshlar va kattalar bilan samarali muloqot o‘rnata oladi.	Yosh inqirozlari bilan ishlash va psixologik yordam ko‘rsatish kompetensiyasini egallayd.
Go‘daklik, bolalik, o‘smirlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlarining psixologik xususiyatlari.	Yosh inqirozlarini aniqlash va baholash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.	Psixologik maslahat va diagnostika jarayonlarini mustaqil tashkil eta oladi.
Yosh inqirozlarining kelib	Psixologik kuzatish va suhbat	Psixologik maslahat va

chiqish sabablari va namoyon bo'lish shakllari.	metodlarini amalda qo'llay oladi.	diagnostika jarayonlarini mustaqil tashkil eta oladi.
Shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi biologik, ijtimoiy va psixologik omillar.	Yoshga oid muammolar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqa oladi.	Shaxs rivojlanishini kompleks baholash kompetensiyasiga ega bo'ladi
Turli yosh davrlarida psixologik maslahat berishning nazariy asoslari.	Kasb tanlash bilan bog'liq psixologik muammolarni tahlil qila oladi	Yosh davrlari bilan bog'liq muammolarni ilmiy asosda tahlil qila oladi
Yoshlar psixologiyasi va kasb tanlash muammolar.	Turli yosh guruhlari bilan onlayn psixologik ishlarni tashkil eta oladi.	Psixologik profilaktika va rivojlantiruvchi ishlarni tashkil eta oladi
Yosh davrlari psixologiyasida zamonaviy yondashuvlar va ilmiy nazariyalar.	Diagnostic natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.	Kasbiy faoliyatda zamonaviy pedagogik va psixologik texnologiyalardan foydalana oladi.

#### 2.4. Fan bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriyalardagi o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim
			Jami	Jumladan:		
				Nazariy	Amaliy	
1	Yosh davrlari psixologiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari	2	2	2		
2	Psixik rivojlanish qonuniyatlari va omillari	4	4	4		
3	Go'daklik va ilk bolalik davri psixologiyasi	2	2		2	
4	Maktabgacha yosh davri psixologiyasi	2	2		2	
5	Kichik maktab yoshi psixologiyasi	2	2		2	
6	O'smirlik davri psixologiyasi	2	2		2	
7	Ilk o'spirinlik va yoshlik davri psixologiyasi	2	2		2	
8	Yetuklik davri psixologiyasi	2	2		2	
9	Keksalik davri psixologiyasi	2	2		2	
10	Yoshlar psixologiyasi va kasb tanlash muammolari	4	4	2	2	
11	Yosh inqirozlari va psixologik yordam	6	6	2	4	
12	Turli yosh davrlarida psixodiagnostika va maslahat	4	4	2	2	
<b>Jami:</b>		<b>36</b>	<b>36</b>	<b>12</b>	<b>24</b>	

### III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

#### 3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

**1 mavzu: Yosh davrlari psixologiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari.** Yosh davrlari psixologiyasining predmeti, ob'ekti va tadqiqot sohasi. Inson psixikasining ontogenez jarayonida rivojlanishi, turli yosh bosqichlaridagi psixologik xususiyatlar va ularning shakllanish qonuniyatlari. Fanning maqsadi insonning psixik rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotda qo'llash. Yosh davrlari psixologiyasining asosiy vazifalari: yosh xususiyatlarini aniqlash, rivojlanish omillarini tahlil qilish, yosh inqirozlarini o'rganish va psixologik yordam usullarini ishlab chiqish. Fanning pedagogika, psixodiagnostika, psixoterapiya va psixologik maslahat sohalari bilan o'zaro bog'liqligi yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

**2 mavzu: Psixik rivojlanish qonuniyatlari va omillari. (4 soat)** Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari va inson shaxsi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Irsiyat, biologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, tarbiya va faoliyatning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati. L.S.Vygotskiy, J.Piaje, E.Erikson kabi olimlarning psixik rivojlanish haqidagi nazariyalar. Rivojlanish jarayonining uzluksizligi, krizis bosqichlari va yoshga xos psixologik o'zgarishlar. Psixik rivojlanishga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarning o'zaro bog'liqligi yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

**10 mavzu: Yoshlar psixologiyasi va kasb tanlash muammolari.** Yoshlik davrining psixologik xususiyatlari, shaxsiy va kasbiy o'zlikni anglash jarayonlari. Yoshlarda mustaqil fikrlash, hayotiy maqsadlarni belgilash va kasbiy qiziqishlarning shakllanishi. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va oilaviy omillar. Yoshlarda kasbiy motivatsiya, qobiliyat va moyilliklarni aniqlashning ahamiyati. Kasb tanlashda uchraydigan psixologik muammolar, ichki ziddiyatlar va ularni bartaraf etish bo'yicha psixologik yondashuvlar yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

**11 mavzu: Yosh inqirozlari va psixologik yordam.** Inson rivojlanishining turli bosqichlarida kuzatiladigan yosh inqirozlari va ularning psixologik

xususiyatlari. Bolalik, o'smirlik, yoshlik va yetuklik davridagi inqiroz holatlarining kelib chiqish sabablari va namoyon bo'lish shakllari. Inqirozlarning shaxs rivojlanishiga ta'siri, emotsional holat va xulq-atvordagi o'zgarishlar. Yosh inqirozlarini bartaraf etish, profilaktika qilish va psixologik qo'llab-quvvatlash usullari. Amaliyotchi psixologning inqirozli holatlarda psixologik maslahat va yordam ko'rsatishdagi vazifalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

**12 mavzu: Turli yosh davrlarida psixodiagnostika va maslahat.** Turli yosh bosqichlarida psixodiagnostika va psixologik maslahat berishning nazariy asoslari. Bolalar, o'smirlar, yoshlar, kattalar va keksalar bilan ishlashda yosh xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati. Yoshga mos psixodiagnostik metodikalarni tanlash, natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish tamoyillari. Psixologik maslahat jarayonida muloqot o'rnatish, ishonchli munosabat shakllantirish va psixologik yordam usullarini qo'llash masalalari. Turli yosh guruhlari bilan ishlashda etik tamoyillar va kasbiy mas'uliyat masalalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

### **3.2. Amliy mashg'ulotlar mazmuni**

**3 mavzu: Go'daklik va ilk bolalik davri psixologiyasi.** Go'daklik va ilk bolalik davrida psixik rivojlanishning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish. Onlayn formatda bolalar rivojlanishiga oid videomateriallar, keyslar va kuzatuv natijalari asosida emotsional bog'lanish, nutq rivojlanishi va ilk ijtimoiy munosabatlar tahlili. Tinglovchilar bolalarning yosh xususiyatlarini aniqlash, rivojlanishdagi muammolarni farqlash va psixologik yordam bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Ota-onalar bilan onlayn muloqot va maslahat berish usullari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**4 mavzu: Maktabgacha yosh davri psixologiyasi.** Maktabgacha yosh davrida bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish. Onlayn mashg'ulotlarda o'yin faoliyati, nutq rivojlanishi, tasavvur va tafakkur jarayonlarini tahlil qilish bo'yicha keyslar. Tinglovchilar bolalar bilan muloqot qilish, rivojlantiruvchi mashqlar tanlash va ota-onalar uchun psixologik

tavsiyalar tayyorlash. Bolalarda xavotir, qoʻrquv va moslashuv muammolarini aniqlash usullari boʻyicha koʻnikmalarga ega boʻladilar.

**5 mavzu: Kichik maktab yoshi psixologiyasi.** Kichik maktab yoshidagi bolalarning oʻquv faoliyati, motivatsiyasi va jamoaga moslashuv xususiyatlarini tahlil qilish. Onlayn muhitda taʼlimiy keyslar, vaziyatli topshiriqlar va diagnostik materiallar asosida bolalarning diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini baholash. Tinglovchilar maktab moslashuvida uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash va psixologik qoʻllab-quvvatlash boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish. Ota-ona va oʻqituvchilar bilan hamkorlik qilish usullari boʻyicha koʻnikmalarga ega boʻladilar.

**6 mavzu: Oʻsmirlik davri psixologiyasi.** Oʻsmirlik davrining psixologik xususiyatlari, emotsional oʻzgarishlar va shaxs shakllanishi jarayonlarini tahlil qilish. Onlayn mashgʻulotlarda konfliktli vaziyatlar, muloqot muammolari va oʻz-oʻzini anglash bilan bogʻliq keyslar. Tinglovchilar oʻsmirlarda stress, xavotir va deviant xulq belgilari bilan ishlash. Oʻsmirlar bilan onlayn psixologik muloqot va maslahat berish usullari boʻyicha koʻnikmalarga ega boʻladilar.

**7 mavzu: Ilk oʻspirinlik va yoshlik davri psixologiyasi.** Ilk oʻspirinlik va yoshlik davrida shaxsiy va kasbiy oʻzlikni anglash jarayonlarini tahlil qilish. Onlayn muhitda motivatsiya, mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy rivojlanish va kasb tanlashga oid keyslar. Tinglovchilar yoshlarda hayotiy maqsadlarni belgilash, ichki ziddiyatlarni aniqlash va psixologik qoʻllab-quvvatlash. Onlayn trening va muloqot usullaridan foydalanish boʻyicha koʻnikmalarga ega boʻladilar.

**8 mavzu: Yetuklik davri psixologiyasi.** Yetuklik davrida shaxsning ijtimoiy, kasbiy va oilaviy faoliyati bilan bogʻliq psixologik xususiyatlar. Onlayn amaliy mashgʻulotlarda stress, emotsional charchoq, hayotiy rollar va shaxslararo munosabatlarga oid keyslar. Tinglovchilar kattalar bilan psixologik maslahat olib borish, emotsional qoʻllab-quvvatlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish. Kasbiy “burnout” holatlari bilan ishlash usullari boʻyicha koʻnikmalarga ega boʻladilar.

**9 mavzu: Keksalik davri psixologiyasi.** Keksalik davrida psixik va emotsional oʻzgarishlarni tahlil qilish. Onlayn mashgʻulotlarda kognitiv

o'zgarishlar, ijtimoiy moslashuv, yolg'izlik va emotsional qiyinchiliklarga oid keyslar. Tinglovchilar keksa insonlar bilan muloqot qilish, psixologik qo'llab-quvvatlash va maslahat berish usullarini amalda qo'llash. Keksalikda hayot sifati va ijtimoiy faollikni saqlash bo'yicha psixologik yondashuvlar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**10 mavzu: Yoshlar psixologiyasi va kasb tanlash muammolari.** Yoshlarda kasbiy qiziqish, qobiliyat va hayotiy maqsadlarni shakllantirish. Onlayn formatda kasb tanlashga oid testlar, keyslar va muloqot mashqlari orqali kasbiy yo'nalganlik. Tinglovchilar yoshlarda kasbiy motivatsiyani aniqlash, qaror qabul qilishga yordam berish va psixologik maslahat ko'rsatish. Kasb tanlashda oila va ijtimoiy muhit ta'siri bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**11 mavzu: Yosh inqirozlari va psixologik yordam.** Turli yosh bosqichlarida kuzatiladigan inqiroz holatlarini tahlil qilish va psixologik yordam ko'rsatish. Onlayn mashg'ulotlarda stressli va inqirozli vaziyatlarga oid keyslar muhokama qilinib, psixologik qo'llab-quvvatlash usullarini ishlab chiqish. Tinglovchilar inqiroz belgilari, emotsional reaksiyalar va moslashuv qiyinchiliklarini aniqlash. Onlayn psixologik maslahat va krizis intervensiya elementlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**12 mavzu: Turli yosh davrlarida psixodiagnostika va maslahat.** Turli yosh guruhlari bilan psixodiagnostik va maslahat ishlarini tashkil etish. Onlayn mashg'ulotlarda yoshga mos test va metodikalarni tanlash, natijalarni tahlil qilish va psixologik xulosa chiqarish usullari. Tinglovchilar bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalar bilan onlayn psixologik maslahat o'tkazish, ishonchli muloqot o'rnatish va psixologik tavsiyalar ishlab chiqish. Onlayn psixologik xizmatda etik tamoyillarga rioya qilish masalalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

#### **IV. NAZORAT SAVOLLARI**

1. Yosh davrlari psixologiyasining predmeti nimadan iborat?
2. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari qaysilar?
3. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

4. Go‘daklik davrining psixologik xususiyatlari qanday?
5. Maktabgacha yosh davrida o‘yin faoliyatining ahamiyati nimada?
6. Kichik maktab yoshidagi bolalarda motivatsiya qanday shakllanadi?
7. O‘smirlik davrining asosiy muammolari nimalardan iborat?
8. Yoshlar psixologiyasida kasb tanlashning o‘rni qanday?
9. Yosh inqirozi tushunchasi nimani anglatadi?
10. Turli yosh davrlarida psixodiagnostikaning o‘ziga xosligi nimada?
11. Psixologik maslahat jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati qanday?
12. Keksalik davrida kuzatiladigan psixologik o‘zgarishlar nimalardan iborat?
13. L.S.Vigotskiyning psixik rivojlanish haqidagi nazariyasi nimaga asoslanadi?
14. Onlayn psixologik maslahatning afzallik va cheklovlari nimalardan iborat?

## **V. O‘QITISH VOSITALARI**

1. Doska;
2. Flipchart qog‘ozi;
3. Qog‘oz A4 formatli yetarlicha;
4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to‘plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor).

## **VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI**

### **Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-iyulda “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-son Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. G‘oziyev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2010. 320 b.

2. Davletshin M.G. Rivojlanish psixologiyasi. –Toshkent: TDPU, 2008. 285 b.

3. Мухина В.С. Возрастная психология. -Москва: Академия,2012. 656 с.

4. Vigotskiy L.S. Psixik rivojlanish nazariyasi. –Moskva: Pedagogika, 2000. 512 s.

5. Элконин Д.Б. Детская психология. -Москва: Академия, 2007. 384 с.

6. Немов Р.С. Психология. Книга 2. -Москва: ВЛАДОС, 2016. 608 с.

7. Karimova V.M. Psixologiya. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 256 b.

8. Обухова Л.Ф. Возрастная психология. -Москва: Юрайт, 2013. 460 с.
9. Эриксон Э. Детство и общество. -Санкт-Петербург: Реч, 2006. 416 с.

#### **Internet saytlar**

1. [www.psychologytoday.com](http://www.psychologytoday.com)
2. [www.apa.org](http://www.apa.org)
3. [www.child-psychology.org](http://www.child-psychology.org)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
7. [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)
8. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)
9. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
10. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)